




**NAVOIY VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**NAVOIY VILOYATIDA  
QURILISH ISHLARI**


**2023- YIL  
YANVAR-IYUN**

2023- yilning yanvar-iyun oylarida, Navoiy viloyatida jami 3 010,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,2 % ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari


Norasmiy sektor

Kichik korxonalar  
va mikrofirmalar




# 2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*

## Yillar kesimida soni



## Hududlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 80,0 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 54,8 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 82,5 foizni tashkil etdi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 13,1 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 119,1 foizni tashkil etdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 32,1 foiz ulushni va 69,8 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.



# Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.07.2022- y.	01.07.2023- y.	
Navoiy viloyati	1758	1424	81
Navoiy shahari	493	408	82,8
Zarafshon shahri	159	130	81,8
G'ozg'on shahar tumanlar:	7	12	171,4
Karmana tumani	302	232	76,8
Konimex tumani	42	34	81
Qiziltepa tumani	257	207	80,5
Navbahor tumani	187	143	76,5
Nurota tumani	122	104	85,2
Tomdi tumani	41	30	73,2
Uchquduq tumani	43	36	83,7
Xatirchi tumani	105	88	83,8





# 2023- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da


**Qiziltepa t. (22,6)**



**Navoiy sh. (21,9)**



**Karmana t. (11,2)**



- Navoiy shahar
- Zarafshon shahar
- G'ozg'on shahar
- Karmana tumani
- Konimex tumani
- Qiziltepa tumani
- Navbahor tumani
- Nurota tumani
- Tomdi tumani
- Uchquduq tumani
- Xatirchi tumani



## Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyun uchun


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>3010,0</b>	<b>519,1</b>	<b>1647,3</b>	<b>843,6</b>
Navoiy shahar.	659,5	79,9	503,3	76,3
Zarafshon shahar.	193,3	20,7	121,4	51,2
G`azg`on shahar	3,2	0	0	3,2
tumanlar:				
Karmana tumani	337,3	0	190,3	147
Konemex tumani	61,6	8,1	31,1	22,4
Qiziltepa tumani	677,4	154,5	369,3	153,6
Navbahor tumani	259,8	0	176,4	83,4
Nurota tumani	415	190,8	135,8	88,4
Tomdi tumani	93,5	64,7	21,2	7,6
Uchquduq tumani	57,5	0,4	22,4	34,7
Xatirchi tumani	251,9	0	76,1	175,8



2023-yilning yanvar-iyun oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 519,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Yirik qurilish ishlari 2022-yilning mos davriga nisbatan 93,7 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 17,3 % ni tashkil etdi.

# Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyun uchun


**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta’mirlesh, kapital ta’mirlesh hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.






# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Hududlar kesimida o'sish sur'ati, % da




Yillar kesimida



**MA'LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng yuqori o'sish sur'ati Nurota tumani (2022- yilga nisbatan 9,9 M %), Konimex tumani (2022- yilga nisbatan 3,6 M %) va Tomdi tumani (2022- yilga nisbatan 2,7 M %)ga to'g'ri keldi.

mlrd. so'm







## Ulushi % da



2022- yil  
yanvar-iyun



2023- yil  
yanvar-iyun




**MA'LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Tomdi tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 69,2 % i), Nurota tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 46,0 % i) va Konimex tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 22,8 %) ga to'g'ri keldi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Hududlar kesimida o'sish sur'ati, % da




Yillar kesimida



**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori o'sish sur'ati Navoiy shahri (2022-yining mos davriga nisbatan 117,1 %), Navbahor tumani (2022-yining mos davriga nisbatan 114,3 %), Karmana tumani (2022-yining mos davriga nisbatan 109,3 %) ga to'g'ri keldi.

Jamiga nisbatan % da



- Navoiy shahar
- Zarafshon shahar
- G'ozg'on shahar
- Karmana tumani
- Konimex tumani
- Qiziltepa tumani
- Navbahor tumani
- Nurota tumani
- Tomdi tumani
- Uchquduq tumani



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 54,7 % i to'g'ri keldi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 109,3 % ni tashkil etgan holda 1 647,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da

54,7

2023- yil  
yanvar-iyun

54,7

2022- yil  
yanvar-iyun




**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Navoiy shahrida (503,3 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 76,3 %), Navbahor tumanida (176,4 mlrd. so'm yoki 67,9 %), Zarafshon shahrida (121,4 mlrd. so'm yoki 62,8 %) ga to'g'ri keldi.

## Hududlar kesimida o'sish sur'ati, % da

Navoiy shahar	103,3
Zarafshon shahar	111,4
G'ozg'on shahar	59,2
Karmana tumani	121,2
Konimex tumani	2,8 M
Qiziltepa tumani	1,6 M
Navbahor tumani	75,7
Nurota tumani	79,3
Tomdi tumani	117,8
Uchquduq tumani	1,4 M
Xatirchi tumani	124,4




## Yillar kesimida



o'sish sur'ati, % da      mlrd. so'm

**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida norasmiy sektor tomonidan eng yuqori o'sish sur'ati Konimex tumani (2022-yining mos davriga nisbatan 2,8 M %), Qiziltepa tumani (2022- yining mos davriga nisbatan 1,6 M %), Uchquduq tumani (2022- yining mos davriga nisbatan 1,4 M %) ga to'g'ri keldi.

## Jamiga nisbatan % da



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 28,0 % ni tashkil etdi yoki 843,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 113,5 % ni tashkil etdi.

2022- yil  
yanvar-iyun

**666,9**  
mlrd. so'm


2023- yil  
yanvar-iyun

**843,6**  
mlrd. so'm

**25,2 %**

**28,0 %**

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 278,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 2 731,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 9,3 % va 90,7 % ni tashkil etdi.



Davlat mulki



Nodavlat mulk



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi 2023- yil yanvar-iyunda

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **74,5 %** i yoki **2 242,8** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 370,1 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **16,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 1 296,3 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **57,8 %** ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 576,4 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **25,7 %** ni tashkil etdi



	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>3010,0</b>	<b>107,2</b>	<b>2242,8</b>
<b>shahar:</b>			
Navoiy shahar	659,5	100,1	560,7
Zarafshon shahar	193,3	65,0	100,9
G'ozg'on shahar	3,2	35,5	2,3
<b>tumanlar:</b>			
Karmana tumani	337,3	112,5	260,2
Konimex tumani	61,6	152,4	51,6
Qiziltepa tumani	677,4	112,8	455,3
Navbahor tumani	259,8	91,5	242,2
Nurota tumani	415	159,6	235,5
Tomdi tumani	93,5	174,6	74,0
Uchquduq tumani	57,5	100,2	33,6
Xatirchi tumani	251,9	101,9	226,5



**Ma'lumot uchun:** Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.



# Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

Ulushi % da



2023- yil  
yanvar-iyun



2022- yil  
yanvar-iyun

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 18,2 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,7 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 18,7 % punktga kamayib, 44,6 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 19,4 % punktga ko'payib, 37,3 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 5,2 % ni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 16,3 % punktga kamaydi.


Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 94,8 % (16,3 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.



## ulushi % da



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 23,4 % punktga kamaydi va 16,7 % ni tashkil etdi. Qolgan 83,3 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 23,4 % punktga ko'paydi.



● **Yirik qurilish tashkilotlari ulushi**

● **Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi**

2022- yil yanvar-iyun

2023- yil yanvar-iyun



# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyunda


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashti-rilgan qurilish ishlari
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>3 010,0</b>	<b>2266,4</b>	<b>589,9</b>	<b>153,7</b>
<i>shahar:</i>				
Navoiy shahar	659,5	475,4	158,4	25,7
Zarafshon shahar	193,3	159,6	31,0	2,7
G'ozg'on shahar	3,2	1,3	1,0	0,9
<i>tumanlar:</i>				
Karmana tumani	337,3	307,1	23,6	6,6
Konimex tumani	61,6	34,8	21,7	5,1
Qiziltepa tumani	677,4	505,6	130,7	41,1
Navbahor tumani	259,8	217,4	33,2	9,2
Nurota tumani	415,0	273,8	114,1	27,1
Tomdi tumani	93,5	60,5	26,1	6,9
Uchquduq tumani	57,5	22,1	22,7	12,7
Xatirchi tumani	251,9	208,8	27,4	15,7





# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyunda

ulushi % da



■ Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari ■ Fuqarolik obyektlarini qurish ■ Bino va inshootlarni qurish



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyunda

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so'm	O'sish sur'ati, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>2 838,5</b>	<b>105,1</b>
<i>shahar:</i>		
Navoiy shahar	4195,0	96,7
Zarafshon shahar	2224,3	64,2
G'ozg'on shahar	348,7	35,1
<i>tumanlar:</i>		
Karmana tumani	3040,4	155,6
Konimex tumani	1647,6	150,4
Qiziltepa tumani	4238,8	111,0
Navbahor tumani	2176,0	89,9
Nurota tumani	4694,8	156,9
Tomdi tumani	5916,0	172,4
Uchquduq tumani	1463,0	98,4
Xatirchi tumani	1196,3	100,0



## 2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimidagi eng yuqori hajm qurilish ishlari

Ma'lumot uchun: Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Qiziltepa tumani (677,4 mlrd.so'm), Navoiy shahri 659,5 mlrd.so'm), Nurota tumani (415,0 mlrd.so'm) Karmana tumani (337,3 mlrd.so'm), tumaniga to'g'ri keladi.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi

Aloqa telefoni: (79) 223-54-73